


TARIX

1. XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritib, keyinchalik sovet hokimiyati tomonidan qatag'on qurboniga aylangan o'zbek xotin-qizlarini aniqlang.
1) Tojixon Shodiyeva; 2) Jahon Obidova; 3) Halima Nosirova; 4) Sora Eshonto'rayeva
A) 1, 4 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 2, 3
2. Pokistonda 1977-yildagi davlat to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan shaxsni aniqlang.
A) *Ziyo ul-Haq* B) *Liikat Alixon*
C) *Parvez Musharraf* D) *Benazir Bxutto*
3. 2007-2008-yillarda qaysi davlatning moliya sektorida boshlangan inqiroz 2009-yilga kelib dunyo miqyosidagi global retsessiyaga aylanib ketgan?
A) *Germaniya* B) *AQSh* C) *Yaponiya*
D) *Fransiya*
4. Quyidagi qaysi voqeadan so'ng X asrda Parxe qirolligi parchalanib ketgan?
A) *Mo'g'ullar istilosi tufayli*
B) *Yaponiya bilan bo'lib o'tgan urush tufayli*
C) *Tan imperiyasining istilolaridan*
D) *Ko'chmanchi kidanlar zarbasidan so'ng*
5. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining qaysi asarida "Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Teatr – bu ibratxonadir", deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir", – deb yozgan?
A) "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"
B) "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li"
C) "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"
D) "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"
6. Mali aholisi qachon islom dinini qabul qilgan?
A) *XII asrda* B) *XIII asrda* C) *X asrda*
D) *XI asrda*
7. XIX asrda temiryo'l transporti ommalashuvini boshlab bergan parovoz kim tomonidan ixtiro qilingan?
A) *Alessandro Volta* B) *Gemfri Devi*
C) *Maykl Faradey* D) *Jorj Stefenson*
8. Quyidagi voqealardan qaysilari qadimgi dunyo tarixida yuz bergan?
1) ko'chmanchi giksos qabilalari tomonidan Misrning bosib olinishi; 2) Shumer-Akkad davlatining qulashi; 3) Lotin imperiyasining vujudga kelishi; 4) Vizantiya imperiyasining qulashi
A) 3, 4 B) 1, 2 C) 2, 3 D) 2, 4
9. XIX asr oxirida Germaniyada kimning tashabbusi bilan Berlinni Fors qo'ltig'i bilan bog'lovchi temiryo'l qurish rejasi tuzilgan?
A) *Simens* B) *S.Rods* C) *A.Griffit*
D) *Reyter*
10. Nil daryosining quyilish joyini ... delta deb atashgan.
A) *shumerlar* B) *misrliklar* C) *yunonlar*
D) *akkadlar*
11. Rossiyada hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining birinchi va so'nggi vakilini aniqlang.
1) Mixail Fyodorovich Romanov; 2) Pyotr I; 3) Aleksandr III; 4) Nikolay II
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 2, 3 D) 1, 4
12. XX asrning 90-yillarida Italiya tarixiga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) Italiya kommunistik partiyasi tarqab ketdi; 2) Bosh vazir Matteo Rensi soliqlarni pasaytirish evaziga italyanlarning daromadini oshirish maqsadini e'lon qildi; 3) Kommunistik uyg'onish partiyasi tashkil topdi; 4) NATOga a'zo bo'ldi; 5) mamlakatda "Halol qo'llar" kampaniyasi boshlandi; 6) Bosh vazir Paolo Jentiloni ta'lim tizimini isloh qildi; 7) Prezident F.Kossiga iste'foga chiqdi
A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 3, 4, 6 C) 1, 4, 5, 6
D) 2, 3, 6, 7
13. IX asrning oxirgi choragida butun Movarounnahr hukmdoriga aylanib, kumush dirham zarb ettirgan Somoniy hukmdorini aniqlang.
A) *Nasr* B) *Nuh II* C) *Abu Ali Chag'oni*
D) *Nuh ibn Nasr*
14. Hokimiyatni bo'lish, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan ingliz olimini aniqlang.
A) *Jon Lokk* B) *Nikolay Kopernik*
C) *Isaak Nyuton* D) *Jordano Bruno*


15. Quyidagilardan Turk xoqonligining asoschisi bo'lgan va G'arbiy Turk xoqonligida hukmronlik qilgan hukmdorlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) Bumini; 2) Pero'z; 3) Xusrav I Anushervon;
4) To'ng yabg'u
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
16. Qadimgi mesopotamiyaliklarning hosildorlik, sevgi, urush va g'alaba ilohasini toping.
A) Venera B) Ishtar C) Ares D) Maat
17. 1947-yil Hindiston mustaqilligi e'lon qilingach, uning hukumatini boshqargan shaxsni aniqlang.
A) I.Gandi B) J.Neru C) L.B.Shastrri
D) M.Gandi
18. 1916-yilda Jizzax qo'zg'oloni podsho hukumati tomonidan ayovsiz bostirilgach, nima sababdan mahalliy aholi o'z uylaridan cho'lga haydab yuborildi?
1) qo'zg'olonda ishtirok etganligi sababli;
2) podsho hukumatiga qarshi qo'zg'olon ko'targan boshqa shahar aholisiga o'rnak bo'lishi uchun; 3) ular qo'zg'olonchilarga xayrixoh bo'lganligi uchun; 4) cho'l hududini o'zlashtirib uni unumli yerga aylantirish uchun;
5) qo'zg'olon rahbarlarini, ishtirokchilarini tutishda podsho hukumatiga yordam bermaganligi uchun.
A) 2, 3, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4
19. Quyida sanab o'tilganlardan qaysilari Rossiya imperiyasi tashqi siyosatining 1870-1918-yillar tarixiga aloqador emas?
1) San-Stefano shartnomasi; 2) Gandimiyon shartnomasi; 3) "sudebnik"; 4) "Berlin traktati"; 5) "Krepostnoy huquqni bekor qilish to'g'risida" gi Manifest; 6) "Dekabristlar" harakati
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 4 C) 1, 4, 6 D) 3, 5, 6
20. Sovet Ittifoqida quyidagi qaysi olim boshchiligidagi guruh tomonidan Oyga kosmik kema uchirish borasida tadqiqotlar olib borilgan?
A) S.P.Korolyov B) A.M.Proxorov
C) N.I.Lobachevskiy D) N.G.Basov
21. Ma'lumki, Qo'qon xonligi hudud jihatidan uch o'zbek davlati orasida eng kattasi bo'lib, uning hududi ... bilan chegaradosh bo'lgan.
(XIX asr birinchi yarmida)
1) shimolda; 2) janubda; 3) g'arbda;
4) sharqda.
a) Rossiya; b) Sharqiy Turkiston; c) Xiva xonligi va Buxoro amirligi; d) Qorategin, Darvoz, Ko'lob va Shug'nan.
A) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
C) 1-a, 2-a, 3-b, 4-c D) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
22. XIX asr o'rtalarida Amudaryoning quyi tarmog'ida vujudga kelgan qoraqalpoqlarning dehqonchilik vohalarini aniqlang.
A) Qo'ng'iro't va Chimboy
B) Taxta va Porsu C) Qalliko'l va Kegayli
D) Xo'jayli va Mang'it
23. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.
- Vena kongressi Berlin kongressi
- 
- a) Buyuk Britaniya harbiy kemalari Qora dengizga kirish huquqiga ega bo'ldi; b) Kipr oroli Usmonli davlatiga in'om etildi; c) Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari ishtirok etdi; d) qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiya qabul qilindi; e) Fransiya hududi o'zining 1789-yilgi chegarasigacha qisqartirildi; f) Chernogoriya, Serbiya va Ruminiyaning davlat mustaqilligi tan olindi.
A) I-b, c; II-a, f; III-d B) I-b, c; II-a, e; III-d
C) I-d, e; II-a, f; III-c D) I-d, e; II-b, f; III-c
24. Buyuk Britaniya tashqi siyosatida "tajovuzkorga yon berish" nomli siyosat kimning nomi bilan bog'liq?
A) Uinston Cherchill B) David Lloyd Jorj
C) Eduard Dalade D) Nevill Chamberlen

25. Buyuk polyak astronomi Nikolay Kopernik 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatib, fanda qanday ulkan yangilikni yaratgan?
- A) *Butun olam tortishish qonunini ishlab chiqqan.*
- B) *Yevropalik olimlar orasida birinchi bo'lib osmon jismlarini kuzatish uchun teleskop ixtiro qildi.*
- C) *Olam abadiy mavjud, u hech qachon yo'q bo'lmaydi, degan xulosani ilgari surgan.*
- D) *Yer Quyosh atrofida va o'z o'qi atrofida aylanadi, degan xulosaga kelgan.*
26. Quyida keltirilgan tarixiy shaxslardan qaysi biri qadimgi Misr hukmdori **bo'lmagan**?
- A) *Kiaksar* B) *Tutmos II* C) *Yaxmos*
D) *Xafra*
27. 1870-1918-yillardagi Fransiya tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.
- A) *Napoleon I imperiyasi tashkil topdi.*
- B) *To'rtinchi Respublika boshqaruvi barham topdi.*
- C) *Napoleon III imperiyasi barham topdi.*
- D) *"Iyul monarxiyasi" boshqaruvi boshlandi.*

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud (davlat) bilan bogʻliq XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiga oid voqeani aniqlang.



- A) Ikkinchi Bolqon urushi natijasida Bolqonning yetakchi davlatiga aylandi.
 B) 1878-yilda boʻlib oʻtgan Berlin kongressida Avstriya-Vengriya bu hududni bosib olish huquqini qoʻlga kiritdi.
 C) Ikkinchi Bolqon urushida yengilib, qoʻlga kiritgan hududlarining bir qismini yoʻqotdi.
 D) 1879-yilda Germaniya bilan ittifoq tuzdi.
29. XIX asrning soʻngiga kelib Afrika qitʼasining 90 %i mustamlakachilar tomonidan ishgʻol qilingan bir sharoitda oʻz mustaqilligini saqlab qolgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



- A) 3, 6 B) 1, 2 C) 4, 6 D) 2, 5

30. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	1917-yilning 26-28-noyabrida Qo'qon shahrida Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyining o'tkazilishi	Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi
2.	1618-1648-yillardagi "O'ttiz yillik urush"	Yevropada siyosiy gegemonlikning Fransiyaga o'tishi
3.	Falangachilar 1936-yil 18-iyul kuni butun Ispaniya bo'ylab harbiy to'ntarish boshlashi va ularga "Xalq fronti"ning qarshi chiqishi	Fuqarolar urushining boshlanishi
4.	1911-yildagi Sinxay inqilobi	Xitoyda Sin sulolasining ag'darilishi
5.	Karl VIII ning 1491-yilda Bretan gersogining qizi Annaga uylanishi	Kale dengiz portining Fransiyaga qo'shib olinishi

A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4 D) 2, 4, 5